QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



# QASHQADARYO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI



## 2022- YIL
## YANVAR-SENTABR



**2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, Qashqadaryo viloyatida jami 5498,0 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 101,8 % ni tashkil etdi.**

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.



# 2022- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar, *birlikda*

Yillar kesimida soni




Hududlar kesimida




**2326** Bino va inshootlar qurish

**356** Fuqarolik obyektlarini qurish

**767** Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2019- yil bilan solishtirganda o‘sish sur’ati 113,7 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 67,4 foiz ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2021- yilga nisbatan 0,2 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 10,3 foiz ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2021- yilga nisbatan 20,7 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 22,2 foiz ulushni tashkil etib, 11,2 foizga kamaygan.

# Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, *birlikda*

| | Holatiga : | | o‘tgan yiliga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| | 01.10.2021- y. | 01.10.2022- y. | |
| **Qashqadaryo viloyati** | **3481** | **3449** | **99,1** |
| *shaharlar:* | | | |
| Qarshi sh. | 894 | 880 | 98,4 |
| Shahrisabz sh. | 147 | 149 | 101,4 |
| *tumanlar:* | | | |
| G‘uzor | 151 | 139 | 92,1 |
| Dehqonobod | 165 | 142 | 86,1 |
| Qamashi | 185 | 164 | 88,6 |
| Qarshi | 410 | 400 | 97,6 |
| Koson | 302 | 318 | 105,3 |
| Kitob | 124 | 135 | 108,9 |
| Mirishkor | 82 | 100 | 122,0 |
| Muborak | 185 | 174 | 93,5 |
| Nishon | 121 | 124 | 102,5 |
| Kasbi | 165 | 160 | 97,0 |
| Ko‘kdala | 0 | 38 | 0 |
| Chiroqchi | 121 | 187 | 84,6 |
| Shahrisabz | 115 | 121 | 105,2 |
| Yakkabog‘ | 214 | 219 | 102,3 |



# 2022- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, *% da*

Qarshi sh. (25,5)



Qarshi (11,6)



Koson (9,2)





# Qurilish ishlari
# 2022- yil yanvar-sentabr oylari uchun

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | Shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| Qashqadaryo viloyati | **5498,0** | **1039,6** | **3130,5** | **1327,9** |
| *shaharlar:* | | | | |
| Qarshi sh. | 1572,8 | 511,4 | 874,9 | 186,5 |
| Shahrisabz sh. | 235,7 | 55,5 | 142,9 | 37,3 |
| *tumanlar:* | | | | |
| G‘uzor | 463,0 | 94,2 | 274,1 | 94,7 |
| Dehqonobod | 104,7 | 0,0 | 40,5 | 64,2 |
| Qamashi | 149,1 | 0,0 | 96,0 | 53,1 |
| Qarshi | 445,6 | 23,1 | 335,9 | 86,6 |
| Koson | 347,5 | 26,2 | 242,3 | 79,0 |
| Kitob | 417,3 | 32,6 | 249,9 | 134,8 |
| Mirishkor | 136,3 | 0,0 | 62,0 | 74,3 |
| Muborak | 264,0 | 88,2 | 118,2 | 57,6 |
| Nishon | 183,0 | 9,6 | 129,2 | 44,2 |
| Kasbi | 210,2 | 2,3 | 117,8 | 90,1 |
| Ko‘kdala | 74,7 | 0,0 | 3,7 | 71,0 |
| Chiroqchi | 430,1 | 179,8 | 140,5 | 109,8 |
| Shahrisabz | 185,7 | 0,1 | 123,0 | 62,6 |
| Yakkabog‘ | 278,3 | 16,6 | 179,6 | 82,1 |

** Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda*



**2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1039,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilga nisbatan 73,0 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yildagi ko‘rsatkich darajasidan 7,1 % punktga kamayib, 18,9 % ni tashkil etdi.**

**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta’mirlash, kapital ta’mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.



# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




**MA’LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Qarshi shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 49,2 % i yoki 2021- yilga nisbatan 102,7 % ga oshdi), Chiroqchi tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 17,3 % i yoki 2021- yilga nisbatan 118,9 % ga oshdi) va Muborak tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 8,5 % i yoki 2021- yiliga nisbatan 44,2 % ga kamaydi) ga to‘g‘ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

**2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 56,9 % i to‘g‘ri kelib, 2021- yil ko‘rsatkichiga nisbatan 4,8 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilga nisbatan 109,6 % ni tashkil etgan holda 3130,5 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.**



**Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da**

**56,9**
2022- yil yanvar-sentabr

**52,1**
2021- yil yanvar-sentabr



**MA’LUMOT UCHUN:** *joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Qarshi shahri (875,0 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 28,0 %), Qarshi tumani (336,0 mlrd. so‘m yoki 10,7 %), G‘uzor tumani (274,1 mlrd. so‘m yoki 8,8 %) ga to‘g‘ri keldi.*

# Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

**Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 24,1 % ni tashkil etdi yoki 1327,9 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2021- yilga nisbatan 117,6 % ni tashkil etdi.**




## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **271,5** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **5226,5** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **4,9 %** va **95,1 %** ni tashkil etdi.






# Mulkchilik shakllari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari 2022- yil yanvar-sentabr oylarida

| | Qurilish ishlari, mlrd so‘m | Davlat mulki | | Nodavlat mulk | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mlrd. so‘m | ulushi, % da | mlrd.so‘m | ulushi,% da |
| Qashqadaryo viloyati | **5498,0** | **271,5** | **4,9** | **5226,5** | **95,1** |
| ***shaharlar:*** | | | | | |
| **Qarshi sh.** | 1572,8 | 271,5 | 17,3 | 1301,3 | 82,7 |
| **Shahrisabz sh.** | 235,7 | | | 235,7 | 100 |
| ***tumanlar:*** | | | | | |
| **G‘uzor** | 436,0 | | | 436,0 | 100 |
| **Dehqonobod** | 104,7 | | | 104,7 | 100 |
| **Qamashi** | 149,1 | | | 149,1 | 100 |
| **Qarshi** | 445,6 | | | 445,6 | 100 |
| **Koson** | 347,5 | | | 347,5 | 100 |
| **Kitob** | 417,3 | | | 417,3 | 100 |
| **Mirishkor** | 136,3 | | | 136,3 | 100 |
| **Muborak** | 264,0 | | | 264,0 | 100 |
| **Nishon** | 183,0 | | | 183,0 | 100 |
| **Kasbi** | 210,2 | | | 210,2 | 100 |
| Ko‘kdala | 74,7 | | | 74,7 | |
| **Chiroqchi** | 430,1 | | | 430,1 | 100 |
| **Shahrisabz** | 185,7 | | | 185,7 | 100 |
| **Yakkabog‘** | 278,3 | | | 278,3 | 100 |



# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2022- yil yanvar-sentabr oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **61,3** % i yoki **3368,9** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**15,4 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **517,6** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **15,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **1661,0** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **49,3 %** ni tashkil etdi.

**49,3 %**

**35,3 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 1190,3 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **35,3 %** ni tashkil etdi.

# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-sentabr oylarida

| | Qurilish ishlari, mlrd. so'm | O'sish sur'ati, % da | Umumiy hajmga nisbatan,% da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati | **5498,0** | **101,8** | **100,0** |
| *shaharlar:* | | | |
| Qarshi sh. | 1572,8 | 119,1 | 28,6 |
| Shahrisabz sh. | 235,7 | 85,7 | 4,3 |
| *tumanlar:* | | | |
| G'uzor | 436,0 | 64,9 | 8,4 |
| Dehqonobod | 104,7 | 116,2 | 1,9 |
| Qamashi | 149,1 | 119,0 | 2,7 |
| Qarshi | 445,6 | 109,5 | 8,1 |
| Koson | 347,5 | 104,0 | 6,3 |
| Kitob | 417,3 | 104,6 | 7,6 |
| Mirishkor | 136,3 | 101,4 | 2,5 |
| Muborak | 264,0 | 74,7 | 4,8 |
| Nishon | 183,0 | 102,6 | 3,3 |
| Kasbi | 210,2 | 119,4 | 3,8 |
| Ko'kdala | 74,7 | 103,9 | 1,4 |
| Chiroqchi | 430,1 | 114,0 | 7,8 |
| Shahrisabz | 185,7 | 111,1 | 3,4 |
| Yakkabog' | 278,3 | 101,4 | 5,1 |

**Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda*



***Ma'lumot uchun:*** *Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.*

# Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

| 2021- yil yanvar-sentabr | | 2022- yil yanvar-sentabr |
|---|---|---|
| 76,4 % Bino va inshootlarni qurish | 100,0 % | 70,6 % Bino va inshootlarni qurish |
| 14,5 % Fuqarolik obyektlarini qurish | | 19,0 % Fuqarolik obyektlarini qurish |
| 9,1 % Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | | 10,4 % Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari |

*Ma’lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi

*ulushi % da*

2021- yil yanvar-sentabr

6,2

65,4

28,4



6,3

59,5

34,2

2022- yil yanvar-sentabr

Yirik qurilish tashkilotlari

Kichik korxona va mikrofirmalar

Norasmiy sektor

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 6,3 % ni tashkil etib, 2021- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ko‘paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2021- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 5,9 % punktga kamayib, 59,5 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 5,8% punktga ko‘payib, 34,2 % ni tashkil etdi.

# Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari

**Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 19,3 % ni tashkil etdi va 2021- yilga nisbatan 15,9 % punktga kamaydi.**

**Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 80,7 % (15,9 % punktga ko‘paydi).**

***ulushi % da***




**2021- yil yanvar-sentabr**

**2022- yil yanvar-sentabr**

# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilga nisbatan 8,5 % punktga ko‘paydi va 60,6 % ni tashkil etdi. Qolgan 39,4 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2021- yilga nisbatan 8,5 % punktga kamaydi.

**Hajmi**
**344,1 mlrd. so‘m**

***ulushi % da***

**Hajmi**
**429,4 mlrd. so‘m**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **60,6** 2022- yil yanvar-sentabr | 2021- yil yanvar- sentabr **52,1** | **39,4** 2022- yil yanvar-sentabr | 2021- yil yanvar- sentabr **47,9** |

*Yirik qurilish tashkilotlari ulushi*

*Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi*

*Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi*
*Aloqa telefoni: (75) 221 32 47*